

O‘ZBEKISTON EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o‘g‘li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Phd, katta o‘qituvchi

kadkhamjon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tashqi savdo mamlakatlar iqtisodiy samaradorligi va iste‘molchilarning tanlov erkinligini oshirishga xizmat qiladi. Uning tarkibiy holati esa milliy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasini, ko‘p hollarda uning istiqbolini ham ko‘rsatib beruvchi indikatorlardan hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

***Kalit so‘zlar:** tashqi savdo, institutsional muhit, diversifikatsiya, eksport, import, strategiya, qo‘shilgan qiymat, ixtisoslashuv.*

ABSTRACT

Foreign trade serves to increase the economic efficiency of countries and the freedom of choice of consumers. Its structural condition is one of the indicators that show the level of development of national production, and in many cases its prospects. A number of reforms in this direction have been implemented in Uzbekistan in recent years.

***Key words:** foreign trade, institutional environment, diversification, export, import, strategy, added value, specialization*

KIRISH

Globalashuv jarayonlari tashqi iqtisodiy munosabatlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi va o'zaro bog'liqligi ortadi, binobarin, xalqaro savdoning barqaror rivojlanishidan dunyo mamlakatlarining manfaatdorligi oshadi. Boshqa tomondan, ular jahon xo'jaligi va milliy iqtisodiyotlarni beqarorlashtiruvchi omillarni keltirib chiqaradilar, bu esa, jahon bozorida xom ashyo resurslari narxlarining keskin o'zgarishiga, iqtisodiy tanazzul va moliyaviy inqirozlarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan, jahon iqtisodiyotining globalashuvi respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosatining muntazam o'zgarib turuvchi tashqi muhit sharoitlarga moslashuvchan bo'lishini talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

“Diversifikatsiya” (odatda biznesda) muvaffaqiyatliroq bo‘lish yoki risklarni kamaytirish uchun mahsulotlar, foizlar, ko‘nikmalar turini kengaytirish evaziga faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Boshqa manbada esa mazkur atamaga quyidagicha ta’rif keltirilgan: “muvaffaqiyatsizlikni oldini olish yoki alohida yo‘nalishlardagi tebranishlarga sezuvchanlikni pasaytirish maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish, turli qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish yoki sotilayotgan tovarlar sonini oshirish amaliyoti”.

MUHOKAMA

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va jahon hamjamiyatida mamlakat nufuzi saqlash va yanada oshirishga qaratilgan. Buning uchun birinchi navbatda qulay normativ va iqtisodiy muhit yaratilishi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu sohada hukumatimiz tomonidan qator normativ hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ularning bazilari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval). Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli ““O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida bir qator punktlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi savdoni rivojlantirishlar masalalarini qamrab olgan bo‘lib, yana aksar iqtisodiy vazifalarning amalga oshirilishi ham pirovardida mamlakatimiz tashqi savdosini tarkibiy jihatdan takomillashuviga olib keladi¹.

1-jadval.

Tashqi savdoni rivojlantirishga qaratilgan qator normativ xujjatlar qisqacha sharhi²

№	Normativ xujjat nomi	Sana	Qisqacha mazmuni
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari			
1.	PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”	2017 yil	PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”
2.	PF-5286-sonli “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta‘minlash va eksportini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”	2017 yil	PF-5286-sonli “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta‘minlash va eksportini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”
3.	PF-5587-sonli “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini	2018 yil	PF-5587-sonli “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini

¹ <https://lex.uz/docs/-6600413> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli ““O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

² Муаллиф томонидан умумлаштирилган.

	yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"		yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"
4.	PF-6042 sonli "Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"	2020 yil	PF-6042 sonli "Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari			
1.	PQ-2732-sonli "O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"	2017 yil	PQ-2732-sonli "O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"
2.	PQ-3077-sonli "Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"	2017 yil	PQ-3077-sonli "Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
3.	PQ-4353 sonli "Avtomobil transportida yuklarni xalqaro tashishni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"	2019 yil	PQ-4353 sonli "Avtomobil transportida yuklarni xalqaro tashishni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"

Birinchi navbatda tarmoqlar diversifikatsiyalashuvi, ishlab chiqarishning kengayishi nazarda tutuvchi quyidagi maqsadlarni alohida keltirib o'tish lozim deb hisoblaymiz:

- Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish.

- Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish.

- Mamlakatimizda investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish.

- O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish.

- Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish. Mazkur yo'nalishlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash, qo'yilgan marralarga erishilishi mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksalishiga olib keladi.

Tashqi savdoning rivojlanishi esa ko'p jihatdan mavjud ichki salohiyatdan samarali foydalanish va uni oshirish maqsadida jahon bozoriga integratsiyalashuvni nazarda tutadi. Albatta, 2030 yilga qadar belgilab olingan davlat dasturida bu

yo‘nalishlar bo‘yicha ham alohida maqsadli parametrlar belgilangan bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat hisoblanadi³:

- eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingga 15 mingga yetkazish;
- eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish;
- xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingga yetkazish;
- dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish;
- “Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;
- turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, tibbiyot va ta‘lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish.

2-jadval.

O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi

	2020	2021	2022	2023
Tashqi savdo aylanmasi	36256,1	42170,5	50061,5	62567,4
jumladan,				
- eksport	15102,2	16662,8	19293,8	24426,2
- import	21153,9	25507,7	30767,7	38141,2
Savdo saldosi	-6051,7	-8844,9	-11473,9	-13715,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilganidek, mamlakat eksporti 2023 yilda 24,4 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Bu dastur bo‘yicha qo‘yilgan rejaning 54 foizini tashkil etadi. Natijada hisoblab chiqishimiz mumkinki, 2030 yilga qadar belgilangan ko‘rsatkichga chiqish uchun davomli ravishda o‘rtacha yillik 9,2 foiz qo‘shimcha o‘shish surati qayd etilishi lozim. Albatta, 2020-2023 yillar oralig‘ida mamlakat eksport hajmi mos ravishda 10,3 foiz, 15,8 foiz hamda 26,6 foiz qo‘shimcha o‘shish qayd etgani yuqoridagi natijaga erishish bo‘yicha optimistik yondashishga imkon beradi. Biroq bu o‘shishlar pandemiya cheklovlari ushlab turgan salohiyatdan keyingi davrlarda foydalanish hisobiga yuz bergan bo‘lishi ehtimoli ham yo‘q emas. Lekin mavjud salohiyat ko‘p yillik barqaror o‘shishni ta‘minlashga qodirmi degan tabiiy

³ <https://lex.uz/docs/-6600413> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli ““O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

savol ham tugʻiladi. Eksportni oshirish bilan bir qatorda savdo balansining holati ham muhim. Toʻlov balansining yakuniy natijasiga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsir etuvchi mazkur miqdorning musbat boʻlishi taʼminlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ustuvor yoʻnalishlardan boʻlishi lozim. 2018 yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyat sohasini islohotlari, ishlab chiqarishni moddiy bazasini yangilashga boʻlgan talab, hamda uzoq yillar ehtiyojlarni shakllantirgan suniy toʻsiqlarning olib tashlanishi soʻnggi yillarda import va eksport hajmi oʻrtasidagi tafovutni ortib borishiga sabab boʻlmoqda. Tahlil etilayotgan 4 yil mobaynida savdo balansi “defitsit”i 2 barobardan koʻproq oshgan. Bu holatda ijobiy tendensiyaning ham koʻrish mumkin. Oʻsish templariga eʼtibor qaratilsa, import hajmida oʻsish templari nisbatan oʻzgarishsiz saqlanayotgani, eksportning hajmi oʻsishi surati esa jadallashib borayotganini sezish mumkin. Natijada, saldoning oʻsish suratlari kamayib boryapti, 2021-2023 yillar orasida qoʻshimcha oʻsish surʼati 2 barobardan ortiq pasaygan.

3-jadval.

Oʻzbekiston eksportining geografik tarkibi

Hamkor mamlakat	2020		2021		2022		2023	
	mlrd. AQSH dollari	ulushi, foizda	mlrd. AQSH dollari	ulushi, foizda	mlrd. AQSH dollari	ulushi, foizda	mlrd. AQSH dollari	ulushi, foizda
Jami eksport	15102,2	100	16662,8	100	19293,8	100	24426,2	100
Rossiya	1470,1	9,7	2058,9	12,4	3151,1	16,3	3307,6	13,5
Xitoy	1930,9	12,8	2518,8	15,1	2632	13,6	2461,8	10,1
Qozogʻiston	903	6,0	1172,1	7,0	1407,5	7,3	1372,5	5,6
Turkiya	1016,3	6,7	1690,1	10,1	1643,5	8,5	1248,5	5,1
Afgʻoniston	774,6	5,1	649,4	3,9	756,3	3,9	856,7	3,5
Asosiy 5 hamkor ulushi	6094,9	40,4	8089,3	48,5	9590,4	49,7	9247,1	37,9

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Umumiy savdo aylanmasi ushbu 4 yil mobaynida 1,7 martaga oʻsgan va uning hajmi 2023 yilda 62,6 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Oʻsish surʼatlari ham jadallashib borayotganini qayd etish lozim, 2021-2023 yillar orasida oʻsish surʼati mos ravishda 116,3 foiz, 118,7 foiz va 124,9 foizni tashkil etgan. Dastlabki maʼlumotlarga qaralganda shu kabi ijobiy tendensiya mamlakat eksportining geografik tarkibida ham kuzatiladi. Berilgan 3-jadval maʼlumotlariga koʻra, eng yirik 5 hamkor mamlakatning Oʻzbekiston eksportidagi ulushi qisqa 4 yil ichida keskin oʻsishdan keyin, 2023 yilda 37,9 foizgacha pasaygan (oʻrganilayotgan davr uchun

minimum ko'rsatkich). Buni eksport tarkibi diversifikatsiyalashuvi chuqurlashib borayotgani sifatida talqin qilish ham mumkin. Biroq mintaqadagi vaziyatlarni inobatga olgan holda eng yirik savdo hamkorlaridan birining harid qobiliyati pasayganing oqibati deb izohlash to'g'ri bo'ladi. Bu masala eksportning tovar tarkibini tahlil etishda ham bir karra ko'riladi. Rossiya O'zbekistonning eng asosiy savdo hamkori sifatida keltirilgan bo'lib, uning ulushi 13,5 foizni tashkil etgan. Davr boshida bu ko'rsatkich 9,7 foizni, 2022 yili esa, tahlil etilayotgan davr uchun maksimumi – 16,3 foizni tashkil etgan. Yil yakunlari bo'yicha 2 yirik hamkor hisoblangan Xitoyning ulushi esa 2020-2021 yillarda Rossiya ulushidan 3 birlikka yuqori bo'lib, eng yirik hamkor maqomida bo'lgan.

Navbatdagi asosiy hamkorlar Qozog'iston (5,6 foiz), Turkiya (5,1 foiz) va Afg'oniston (3,5) bo'lib, ularning ulushida yoki savdo hajmida keskin o'zgarishlar kuzatilmagan. Tahlil etilayotgan davrda asosiy hamkorlar ichida eng yuqori mutloq o'sish Rossiyaga yo'naltirilgan eksportda bo'lib, uning hajmi 2,25 martaga o'sgan va bu ushbu guruh uchun umumiy eksport o'sish sur'atlaridan yuqori yagona ko'rsatkich hisoblanadi. Umumiy o'sish sur'atlariga eng yaqin ko'rsatkich Qozog'istonda kuzatilgan bo'lib, uning hajmi 1,51 martaga o'sgan. Mamlakat tashqi savdosining geografik tarkibi ko'p jihatdan uning tovar tarkibiga ham bog'liq bo'lib mahsulotlar, tovarlar xususiyatidan kelib chiqqan holda, eksportning geografik tarkibi o'zgarib boradi.

NATIJALAR

Daromadi past bo'lgan mamlakatlarning bozorlari sig'imi, ularni kengaytirish va bu kabi bozorlarda yuqori daromad olish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Natijda ishlab chiqarishning sifat va texnologik yangi bosqichlarga olib chiqishga ishtiyoq, ehtiyoj nisbatan past bo'ladi. Chunki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish harajatlari iqtisodiy samarador hisoblanmasligi mumkin. Geografik diversifikatsiya – ideal yechim emas, sababi Yevropa va Janubi-sharqiy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida ham aniq bir bozorlarga ixtisoslashuv darajasi yuqori ekani, hamda ular eksportda muvaffaqiyatga erishayotganini ko'rishimiz mumkin.

Asosiy masala – hamkorlar mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi, bozor sig'imi, ularning iste'mol xususiyatlari, shuningdek, eksport qilinayotgan mahsulotlarning turlari va ulardagi qo'shilgan qiymat hisoblanadi. Polsha eksportida YI mamlakatlari ulushi yuqori ekanini ko'rish mumkin (Germaniya – 27,6 foiz, Chexiya – 6,3 foiz va Birlashgan Qirollik – 6,2 foiz). Bu esa asosiy hamkorlar bilan eksport va import munosabatlari mutlaqo erkinligini bildiradi. Malayziya eksportida ham shu kabi iqtisodiy ochiq mamlakatlar (Singapur, Xitoy, AQSh) ulushi yuqori.

Natijada ushbu mamlakatlar mahsulot va xizmatlarni tez va kam xarajat evaziga yetkazib bera oladilar, bu bilan jahon bozorida raqobatbardoshligini oshiradilar. Bu yerda transport masalalarining ham ahamiyati yuqori ekani namoyon bo'ladi. O'zbekiston qo'shilgan qiymati past bo'lgan mahsulotlar eksportiga ixtisoslashib qolayotgani tabiiy kamchiligimiz hisoblangan noqulay geografik joylashuvimizning salbiy ta'sirini yanada oshirib yubormoqda. Arzon mahsulotga qimmat qilingan transport harajatlari uning bozor narxini 5-20 foiz ortishiga olib kelmoqda. Natijada uning jahon bozoridagi raqobatbardoshligi darajasi pasayib bormoqda.

XULOSA

Bugungi kunda yangi bozorlarga kirib borish ko'p jihatdan eksportchilarning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq. O'zbekistonda ham Turkiyada mavjud Turk Exim bankning vazifasini bajaruvchi moliyaviy tashkilot faoliyatini yo'lga qo'yish bu muammoning hal bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud 30 dan ortiq banklarning barchasi tashqi iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha mahsulotlar taklif qiladi, biroq ixtisoslashuvning yetishmasligi moliyaviy resurslarning narxlarini ortishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek Savdo sanoat palatasi faoliyatini, uning tashqi savdo bo'yicha vakolatlarini konkretlashtirish, kengaytirish va informativ funksiyalarini oshirish lozim. Nizom bo'yicha palata oldiga tashqi savdo faoliyati bilan bog'liq quyidagi vazifalar belgilab berilgan: O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik sub'ektlarini xalqaro ishbilarmonlik hamjamiyatiga integratsiyalash, ular mahsulotlarining tashqi bozorlarga chiqarilishini ta'minlashda ko'maklashish, milliy brendlarni xorijda ilgari surish, investitsiyalarni, shu jumladan chet el investitsiyalarini, shuningdek zamonaviy texnologiyalarni jalb etish.

Ushbu yo'nalishda samaradorlik darajasini oshirish uchun yuklarni bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi va shakli, bojxona ishlash tizimi isloh etilishi lozim. Jumladan, eksportimport shartnomalarini bojxona umumiy tizimidan ro'yxatdan o'tkazish tartibini yengillashtirish, mavjud dasturlarni bexato va uzilishsiz ishlashini ta'minlash kerak. Hozirda bojxona hududiy boshqarmalari va xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan maxsus xodimlar tadbirkorlarga shartnomani ro'yxatdan o'tkazishda amaliy yordam berishi, dasturlar bilan ishlashni o'rgatishi uchun ajratilgan. Lekin dasturning murakkabligi va kiritilayotgan ma'lumotlarning turli xil ekanligi haligacha ko'plab tushunmovchilik, muammolar kelib chiqishiga va natijada vaqt yo'qotilishiga sabab bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – T.: Baktria Press, 2015. – 583 b.
2. www.wto.org
3. www.stat.uz
4. <https://lex.uz/docs/-6600413> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli ““O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni